


7.	Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2023 yil qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti  B.Sh.Ashurov
9.	Taqrizchilar: Filologiya fanlari doktori, professor A.Xolmurodov Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z. Jumayev

Kafedra mudiri



prof. A.Xolmurodov

(imzo)

(ismi, familiyasi)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



№ _____

“ADABIYOTSHUNOSLIK METODOLOGIYASI” FANINING

O'QUV DASTURI

(magistratura)

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110 000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 70110701 – O'zbek tili va adabiyoti

Navoiy– 2024

Fan/modul kodi A.M1205	O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	Kreditlar 5	
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili O'zbek(magistratura)		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Adabiyotshunoslik metodologiyasi	60	90	150
2.	<p>I. Fanning mazmuni: "Adabiyotshunoslik metodologiyasi " fani dasturi o'zbek adabiyotining (eng qadimgi davrdan shu kungacha bo'lgan davrda yaratilgan) yirik namunalarini adabiyotshunosligimizda barqarorlashib borayotgan metod va yondashuvlar asosida o'rganish masalalarini qamrab olgan.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari:</p> <p>"Adabiyotshunoslik metodologiyasi " fani bo'yicha ushbu dastur magistr talabalarining O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligiga mo'ljallangan. Unda talabalarga badiiy asar matnini tahlil qilishda yondashish mumkin bo'lgan metod va usullar bo'yicha bilim berish maqsad qilib olingan.</p> <p>Adabiyotshunoslik metodologiyasi . Adabiy matnni o'qish, o'zlashtirish muammosi haqida, adabiy matn turlari tahlili. Adabiy-badiiy matnning o'ziga xos, betakror qurilma ekanligi. Matnni tushunishda talqin, tanqid va tahlil turarining o'rini tushuntirish vazifasidan iborat.</p> <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>I – MODUL. Adabiyotshunoslik asoslari</p>			

1-mavzu. "Adabiyotshunoslik metodologiyasi " fan sifatida

Badiiy asar va unga xos xususiyatlar. Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon ilm egalariining diqqatini tortib kelgan. Shuning uchun xam unga olimlar tomonidan turlicha ta'rif berib kelingan. Badiiy tahlil Forobiy, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari mutafakkirlarning asarlarida badiiy tahlilga doir islomiy-turkiy qarashlar aks etgan.

Adabiy matnni o'qish, o'zlashtirish muammosi. Adabiy matn turlari. Adabiy-badiiy matnning o'ziga xos, betakror qurilma ekanligi. Matnni tushunishda talqin, tanqid va tahlilning o'rini tushuntirish.

2-mavzu: Adabiyotshunoslik metodologiyasi obyekti va metodlar tasnifi

Adabiyotshunoslik metodologiyasi asos muhim urin tutadi. Chunki dunyo va uning hodisalariga yondashuv tarzi belgilab olinmay turib, olamni to'g'ri estetik idrok etish va tasvirlash mumkin emas. Falsafiy asos to'g'ri bo'lmaganligi uchun ba'zan yaxshi bilan yomon, xunuk bilan go'zal tushunchalariga yondashuv tamomila noto'g'ri, g'ayri ilmiy xarakter kasb etishi mumkin. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida tahlilga, asosan, moddiyunchi falsafaga asoslanib yondashilayotir. Arastu badiiy asarni taqlid-mimesis natijasi deb izohlagan. "Alpomish" yo'sinidagi yirik xalq dostonlari ham hamma millatlarda ham mavjud emas.

3- mavzu: Biografik metod

Badiiy tahlil tushunchasi kup asrlar mobaynida o'z ta'rifiga ega bo'lmay keldi. Tahlilga dastlabki ta'rif Ovrupo adabiyotshunosligida XIX asr ikkinchi yarmidan berila boshlandi.

4-mavzu: Adabiyotshunoslik metodologiyasi tahlil bosqichlari va uning badiiy tasvirga muvofiqligi.

Badiiy tahlil muayyan hozirlikni talab qiladigan ilmiy-estetik jarayondir. Bu jarayon muayyan bosqichlarga bo'lingan holda amalga oshiriladi. Taroziy, Navoiy, Bobur asarlarida namoyon bo'lgan badiiy tahlil adabiyottanuvning qanday saviyada ekanligini kursatishi jihatidan xarakterlidir. Yangi uzbek adabiyoti tasvirning besh bosqichini boshidan o'tkazdi.

5-mavzu: Adabiyotshunoslik metodologiyasi tahlilning yo'nalishlari

Badiiy tahlilda qat'iy ilmiy tartibga rioya etgan holda so'zdan obrazga, obrazdan g'oyaga qarab boriladi va tahlilning barcha bosqichlarida badiiy so'zning estetik jozibasi diqqat markazida turadi. Tahlil etilayotgan asarni qaysi jihatdan

Ilmiy (filologik) tahlilda tahlil bajarilayotgan zamon va makon hamda tahlilning adresatiga xos xususiyatlar deyarli hisobga olinmagan holda ish kuriladi.

6-mavzu: Adabiyotshunoslik metodologiyasi Badiiy asarning ilmiy tahlili. Tahlil va milliy mentalitet

Ilmiy tahlil, "ilmiy tahlil maqsadi", "ilmiy tahlilning vazifalari", "yozuvchi, o'quvchi, matn munosabatlari xarakteri", "davr va tahlil", "tahlil va milliy mentalitet". Badiiy asar mohiyatini ochishda ilmiy (filologik) tahlil baland rutbada turadi. Filologik (ilmiy) tahlilga xos xususiyatlarini aniqlash uchun bu xil tahlilning maqsadini belgilash zarurdir. Ilmiy tahlilning maqsadi o'rganilayotgan asarning hayotiy va badiiy mantigi hamda estetik jozibasini ochishdan iboratdir.

7-mavzu: O'quv tahliliga xos tamoyillar.

Didaktik tahlilni uyushtirishning nazariy asoslarini belgilashdan oldin o'quv tahlilning ilmiy tahlildan farqini aniqlab olish zarur bo'ladi. Aslida, didaktik tahlil xam badiiy matnning sirini kashf etishga, muallifning niyatini anglashga, asar jozibasini ta'minlaydigan jihatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyatdir.

8-mavzu: Adabiyotshunoslik metodologiyasi Badiiy tahlilning asosiy tamoyillari.

Badiiy tahlilda ilmiy tushunchalar asosida ish kurilib, xulosalar chiqarilsa-da, undan ilmga xos bir xillik kutish mumkin emas. Badiiy asarning butun schru jozibasini to'liq namoyon bo'lishi, o'rganilayotgan asarning g'oyasigina emas, balki aks ettirilgan inson ruhiyati manzaralari ham anglashilishi uchun badiiy tahlil bir qator tamoyillarga amal qilingan holda bajarilishi kerak. Cho'lponning "Go'zal", "Binafsha", "Sirlar", Rauf Parfining "Yoshlik zangor fasl", "Xato qildim", "Yong'ir tinmadi", "Daryo mavjlariga yozilmish g'azal", Abdulla Oripovning "Uylarim", "Genetika", "Dengizga", "Bahor", "Saraton", "Onajon" va hokozo asarlarini izohlash.

9-mavzu: Adabiyotshunoslik metodologiyasi BADIY TAHLILDA SHAKL VA MAZMUN

Shakl tushunchasining falsafiy-estetik mohiyati. Mazmun tushunchasining mantiqiy mohiyati. Tahlil jarayonida shakl va mazmun munosabatining ahamiyati. Shakl va mazmun munosabati estetik muammo sifatida.

10-mavzu: Epik asarlarni tahlil etish yo'llari.

Hayotiy ko'lamning kengligi, murakkab insoniy taqdir, qahramonlar ruhiyatidagi sanoksiz tovlanishlar voqealar asnosida idrok etilishi lozim

bo'lgan epik asarlarda tahlil ham o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi.

11-mavzu: Dramatik asarlarni tahlil etish yo'llari.

Aslida dramatik asarlar tahlili ham xuddi epik va lirik turdagi asarlarni tahlil qilishga juda ham uxshab ketadi. Ammo dramatik turdagi asarlar faqat ukish uchun emas, balki asosan kursatish, namoyish etish uchun ham yozilganligi sabab teatrda xos xususiyatlar hisobga olinishi, ya'ni yaratilayotgan vaqtdayok asarning spektaklga aylanishi ko'zda tutilishi joiz.

12-mavzu: Lirik asarlarni tahlil etish yo'llari.

Lirik turdagi asarlar, odatda, kichik hajmli bolib, biror voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali hayotni aks ettiradi. Shoir lirikada ayrim shaxsning bevosita hayotiy kechinmasini beradi, bu bilan lirik asarda xarakter va kechinmani individualashtiradi. Shu bilan bir qatorda, ijodkor lirik asarda faqat o'z fikri, his-tuyg'ularinigina emas, balki umuminsoniy lipik kechinmalarni ham ifodalaydi.

13-mavzu: Mumtoz asarlarni tadqiq etishda didaktik tahlilning o'rni

Mumtoz asarlarni tadqiq etishda didaktik tahlilning o'rni. Mumtoz adabiyot namunalarining islom madaniyati bilan uyg'unligi. Adabiyotda – komil inson muammosi. Didaktik tahlilda umuminsoniy va davr muammolarining uyg'unligi masalasi. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Yassaviy asarlarini didaktik tahlil asosida o'rganishning samarasini tushuntirish.

14-mavzu: Mumtoz badiiy matnlarining ko'pma'nolilik xususiyatlari va orifona adabiyot.

Mumtoz badiiy matnlarining ko'pmahnolilik xususiyatlari. Badiiy matnda bir necha mahnoni ifodalash imkoniyati va aruligi. Tasavvufiy adabiyotda ramziylik. Obrazlarning zulmahnaynlik xususiyatlari. Badiiy matnda zohiriy va botiniy ma'nolar uyg'unligi Badiiy-orifona adabiyot, uning xususiyatlari

15-mavzu: O'zbek she'r'iyatida barmoq va erkin vazni imkoniyatlarini tahlili

Barmoq she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash ishi she'r tanlashdan boshlanadi. She'r tanlash talaba ixtiyoriga qo'yiladi. Talaba bilim darajasi, qiziqishi, badiiyatga munosabatiga ko'ra o'zi she'r tanlaydi. Mazkur tizim bo'yicha mashq darslarining biri maktab darsliklaridagi materiallarni

o'qishga bag'ishlanadi.

III.1. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Amaliy mashg'ulotlarini tashkil qilishda tavsiya etilgan ilmiy muammo yoki masala yuzasidan talabalarga avvaldan amaliy rejasi va unga muvofiq adabiyotlar ro'yxati beriladi. Amaliy mashg'ulotlariga ko'proq nazariy muammolarni amalda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Talabalar har bir amaliy mashg'ulotda oldindan berilgan savollarga javob topadilar. Mashg'ulot jarayonida to'plagan ma'lumotlarini amaliy ishlar orqali mustahkamlaydilar.

1. Badiiy asarning ilmiy tahlili
2. Badiiy tasvir va ilmiy tahlil bosqichlari munosabati
3. Tahlilda tasviriy unsurlar uyg'unligi
4. Tahlilda adabiy tur va janrga xos xususiyatlarni hisobga olish
5. Sotsiologik metod
6. Biografik metod
7. Psixologik metod
8. Formal metod
9. Struktual metod
10. Lingvistik metod
11. Germenevtik metod
12. Lirik asarlarni tahlil qilish yo'llari
13. Epik asarlar tahlili
14. Dramatik asarlarni tahlil qilish
15. Xalq dostonlari va formal metod

III.3. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha mavzular:

1. Xalq qo'shiqlari tahlili
2. "Qutadg'u bilig" asarini didaktik tahlil usuli orqali o'rganish.
3. Navoiy va Bobur g'azalini sharhlash, tahlil qilish usullari.
4. "O'tkan kunlar" romanini qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida o'rganish.

5. O'zbek hikoyachilini struktur tahlil metodi asosida tadqiq etish.
6. XX asr she'riyatini psixanalitik metod asosida o'rganish.

7. "Ulug'bek xazinasi" pyesasining psixologik metod asosida o'rganish.
8. "Avlodlar dovoni" asarini biografik metod asosida tahlil qilish.
9. U. Azimning "Alpomishning qaytishi" dramatik asarini struktual metod asosida tahlil qilish.
10. E. Vohidovning komediya janridagi asarlarini formal metod asosida tahlil qilish.
11. A. Oripov she'riyatini lingvistik metod asosida tahlil qilish.
12. O'. Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarining filologik tahlili.
13. T. Malikning "Odamiylik mulki" asarining axloqiy-didaktik tahlili.
14. Badiiy asarda sarlavha va epigraflar tahlili.
15. Badiiy asarda badiiy va ijtimoiy konflikt tahlili

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
 - dokladlar, taqdimotlar tayyorlash;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruh bo'yicha o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfoliolar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbaalar bilan ishlash;
 - infografika tuzish;
 - multimediali taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil

ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Aristotelning "Poetika" asarini o'rganish, sharhini yozish.
2. "Majolis un-nafois" asarini o'rganish, tahlilini yozish.
3. Fitratning "Adabiyot qoidalari", "Aruz haqida" asarlarini o'rganish.
4. Cho'lponning adabiy-estetik qarashlari va "Adabiyot nadur?" maqolasi bilan tanishish va shu savolga shaxsiy mulohaza tayyorlash.
5. "Jahon adiblari adabiyot haqida" kitobini sharhini yozish
6. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar"romani, "Uloqda" hikoyasi, "Kalvak Mahzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi" kabi hajviyalari tahlilini yozish.
7. Matyoqub Qo'shjonovning "Saylanma" maqolalar to'plamini o'qib o'zlashtirish, Adabiyotda estetik kategoriyalar" bobini konspektlashtirish.
8. A. Fitratning "Shaytonning tangriga isyoni", "Abulfayzxon"dramasi, "Qiyomat" hikoyasi tahlili.
9. Ozod Sharafiddinovning "Saylanma" nomli maqolalar to'plamini mutolaa qilish (referat yozish).
- 10.Umarali Normatovning "Tjod sehri", "Qodiriy mo'jizasi" kitoblarini mutolaa qilish.
- 11.Oybekning "Qutlug' qon" romani, "Bolalik"qissasi, saralangan she'rlaridan yod olish va tahlil qilish.
- 12.G'afur G'ulomning "Shum bola " qissasi, "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi, saralangan she'rlaridan yod olish va tahlil qilish.
- 13.Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi, saralangan she'rlari o'qish va tahlil qilish.
- 14.Modern hikoyalar bo'yicha prezintatsiya tayyorlash.
- 15.O.Yoqubov: "Ulug'bek xazinasi", "Diyonat", "Qanot juft boladi" romani, "Muzqaymoq" hikoyasi tahlili.
- 16.Erkin Vohidov: "O'zbekim", "Inson" qasidasi, "Istanbul fojeasi" (dramatik doston), "Ruhlar isyoni" dostonlari tahlilini yozish.
- 17.Adabiyot va mafkura mavzusida prezintatsiya tayyorlash.

- 18.Bir asar tahlili bo'yicha maqola yozish.
- 19.Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" va "Oydinda yurgan odamlar" qissalarida milliylik masalasi tahlili.
- 20.Yozuvchi Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasini o'qib, muhokama qilish.
- 21.Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanini o'qib, referat yozish.
- 22.Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari bo'yicha taqdimot tayyorlash.
- 23.Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi xususida davra suhbatiga tayyorgarlik ko'rish.
- 24.Badiiy adabiyot haqida adabiyotshunoslikdagi bahslar to'g'risida shaxsiy mulohazalami yozish.
- 25.Badiiy asarda detal mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlash.
- 26.Badiiy asar - badiiy kommunikatsiya vositasi mavzusi bo'yicha esse yozish.
- 27.Sharq mumtoz adabiyotshunosligi tarixi bo'yicha taqdimot tayyorlash.
- 28.Behbudiyning "Teatr nadur?" maqolasini o'rganish.
- 29.Shukur Xolmirzayev esselaridan birini o'qib o'rganish.
- 30.Badiiy publitsistik janrlar bo'yicha taqdimot tayyorlash.
- 31.Tazkira janri va uning zamonaviy ko'rinishlari xususida taqdimot tayyorlash.
- 32."O'zbek adabiyotshunoslari va ularning fan rivojida tutgan o'rni" mavzusida taqdimot tayyorlash.
- 33.Ijodkorming adabiy-estetik qarashlari. Muayyan ijodkorming adabiy-tanqidiy qarashlari asosida referat tayyorlash.

3. **V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Talaba bilishi kerak:

- "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani bo'yicha bakalavr talaba badiiy adabiyotning umuminsoniy mohiyati, adabiy-nazariy tafakkur tarixidagi o'ziga xosliklar, badiiy asar mavzusi va poyetik g'oyasi, poetik tafakkurga xos belgilar, badiiy ijod qonuniyatlari va ijod psixologiyasi, badiiy adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o'rni, badiiy asarni qabul qilish masalalari, jahon adabiyotshunosligida kechayotgan jarayonlar *xaqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)*

	<ul style="list-style-type: none"> • Ushbu fan doirasida talaba adabiyotshunoslik nazariyasining tarix, falsafa, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, adabiyotshunoslik ilmi va adabiy jarayondagi nazariy masalalarni, badiiy asarning shakl va mazmuniga oid nazariy qarashlarni, lirikaning poetik mohiyatini, badiiy asar tili, poyetik nutq va uslubiy individuallik masalalarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; (ko'nikma) • Shuningdek, nazariy bilim olgan bakalavr talaba adabiy manbalarga nazariy baho bera olish, badiiy asarni filologik nuqtai nazardan talqin va tahlil etish, badiiy adabiyot va san'atning mazmun-mohiyati bo'yicha adabiy suhbatlar o'tkazish, mavjud adabiy manbalar asosida ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalar chiqara olish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruza; • keys-stadi; • individual loyihalar; • taqdimotlar qilish; • guruhlarda ishlash; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish; • "BBB", "Tarozi", "SWOT-tahlil", "Sinkveyn", "FSMU", o'yin, musobaqa.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar: <ol style="list-style-type: none"> 1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2000. 2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Akademnashr, 2010. 3. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: O'zbekiston, 2018. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b. 7. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. – T.: Sharq. 2002. 8. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. 9. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.:

	Kamalak, 2016.
	<ol style="list-style-type: none"> 10. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004 11. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. Toshkent: Sharq, 2007. 12. U.Normatov. Nafosat gurunglari. – T.: Mumtoz so'z, 2011. 13. Karimov. B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T.: Muharrir, 2011. 14. H. Boltaboyev, M.Mahmudov. "Adabiy-estetik tafakkur tarixi". – T.: Mumtoz so'z, 2013-2016. 15. X.Hamrakulova "XX asr o'zbek nasrida hayot va o'lim muammosining badiiy talqini. – T.: Innovatsiya ziyo, 2020. 16. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018 17. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari.– T.:2004. 18. Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. 19. Teoriya literaturi. Pod red. N.D.Tamarchenko. – M.: "Akademiya", 2004. 20. Xalizev V.YE. Teoriya literaturi. 4-ye izd. – M.: "Visshaya shkola", 2006. 21. Ensiklopediya modernizma. – M.: "Eskamo", 2002. <p style="text-align: center;">O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда) 2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги "Ўзбекистоннинг янги тараккиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПФ-6108-сон фармони. <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. http://www.edu.uz–Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги сайти. 4. http://www.uzedu.uz – Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги сайти. 5. http://www.gov.uz– Ўзбекистон Республикаси ҳукумати портали. 6. http://www.archaeology.com